

ILMIY-ОММАБОП JANRGA XOS MATNLAR USTIDA ISHLASH

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

NDPI Ijtimoiy va gumanitar fanlarni masofadan o‘qitish kafedrasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada ilmiy-ommabop matn va uning uslubi, funktsiyalari, ilmiy-tarixiy mazmundagi matnlar, ilmiy-ommabop maqolalarini izohli o‘qish darsida reja asosida o‘qitish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: ilmiy-ommabop janr, ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar, mavsumiy mazmundagi asarlar, ilmiy-ommabop asarlarni izohli o‘qish.

РАБОТА НАД ТЕКСТАМИ НАУЧНО-ПОПУЛЯРНОГО ЖАНРА

Абдуразакова Нуржамал Салиматдиновна

Стажер-преподаватель кафедры дистанционного обучения социально-гуманитарных наук НДПИ

Аннотация: В данной статье даются сведения о научно-популярном тексте и его стиле, функциях, текстах научно-исторического содержания, преподавании научно-популярных статей на основе плана на уроке аннотированного чтения.

Ключевые слова: научно-популярный жанр, произведения общественно-исторического содержания, произведения сезонного содержания, аннотированное чтение научно-популярных произведений.

WORK ON TEXTS OF THE SCIENTIFIC-POPULAR GENRE

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Trainee-teacher of the Distance Education Department of Social Sciences and Humanities of NDPI

Abstarct: This article provides information about scientific and popular text and its style, functions, texts with scientific and historical content, teaching of

scientific and popular articles on the basis of a plan in the lesson of annotated reading.

Key words: scientific-popular genre, works of socio-historical content, works of seasonal content, annotated reading of scientific-popular works.

Ilmiy-ommabop matn – fan asoslari, fan, madaniyat va amaliyotdagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar bo‘yicha materiallarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni keng afkor ommaga tarqatish va mustaqil o‘qib o‘rganishgamo‘ljallangan nutq shakli. Bunday matnlarning maqsadi ilmiy faktlar va ma’lumotlarni, ya’ni, ilmiy bilimlarni keng o‘quvchilar doirasi uchun ochiq shaklda, nafaqat ma’lumotni tushunarli taqdim etishni, balki ushbu taqdimotga qandaydir hissiyot va tasvirni berishni ham nazarda tutadi. Uslubning emotSIONalligi va obrazliligi matnni jonlantirishga, o‘quvchini qiziqtirishga, uning e’tiborini muayyan faktlar va xulosalarga qaratishga yordam beradigan, shuningdek, muallifga o‘z fikrini ifoda etishga imkon beradigan turli xil stilistik vositalar orqali o‘quvchilarning qiziqishi, diqqat-e’tibori va ishonchini qozonadi. Shu orqali tushunish mumkinki, ilmiy-ommabop matn ilmiy uslub va badiiy uslub o‘rtasida ma’lum bir bo‘shliqni egallaydi, chunki kognitiv mazmun, aniqlik, ravshanlik va ilmiy faktlarni tavsiflashning va uni taqdim etishning ilmiy uslubi bilan umumiyl bo‘lib, badiiy adabiyotdagi hissiylikni, tasvirni, subyektiv baholashni, bayonni birlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, obyektiv mazmun subyektiv usullar va ifoda vositalarida berilishi mumkin¹.

Ilmiy-ommabop matnning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir, shuning uchun muallif matnni o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yaratadi².

Ilmiy-ommabop matndagi kognitiv ma’lumotni shakllantirishning lisoniy vositalari bir ma’noli ekvivalentlar, variant mosliklari va sintaktik transformatsiyalar ko‘rinishidagi jumlalarni tarjima qilishda uchraydi. So‘zlashuv

¹

²

leksikasi, emotsiyal baholovchi leksika, emotsiyal inversiyalar, frazeologik birliklar va majoziy obrazlarni funksional jihatdan mos keladigan vositalar bilan, asosan, mos muqobillar bilan yoki ba'zan kompensatsiyalash usuli bilan tarjima qilinadi. Epitet, metafora, o'xshatish va troplar ko'proq bu vositalarning o'ziga xosligini saqlash bilan emas, balki ularning matndagi funksional xususiyatlarini yetkazib berish bilan tarjima qilinadi

Boshlang'ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayot haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishslashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi maqolalarni o'qish bilan bog'liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (*masalan, daraxt kurtaklarining bo'rtishi*), o'quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergen o'zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo'lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi. O'qish darsliklaridan o'rin olgan *Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur* va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o'quvchilarni nafaqat o'tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatni teran anglashga ham yordam beradi. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat tarraqqiyoti haqida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e'tibor berish zarur.

1-sinfda o‘qish bilan bog‘liq holda kuzatish, sayohat darslari mo‘ljallanadi. Masalan, yil fasllarida mavsumiy tabiat hodisalari (*ob-havoning o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonlarning hayoti*)ni, shuningdek, dala mehnatini kuzatish uchun tabiatga (*dala, bog‘, xiyobonlarga*) sayohat uyushtirish ko‘zda tutiladi. Sayohatda tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi.

Bunday darslarda ko‘rsatma sifatida o‘quv filmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog‘lab o‘qitish kishilarning hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; o‘quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

O‘quvchilar Ona Vatan, ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi tarraqiyoti haqida maqolalar bilan tanishsa, xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilimlarga ega bo‘lish bilan birga ularda Vataniga, xalqiqa, ona tabiatiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o‘qish darsini uyushtirishda quyidagicha reja asos qilib olinishi mumkin:

1. O‘qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o‘tkazish.
2. Maqolani yoki uning ma’lum bir qismini o‘qish, o‘quvchiga notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosini ustida ishslash.
3. Maqola rejasini tuzish.
4. O‘qilgan maqola yuzasidan suhbat uyushtirish.
5. Matnning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yoritish.
6. Reja asosida maqolani qayta o‘qish.
7. Maqolani yaxlit o‘qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga erishish maqsadi ko‘zda tutiladi.

8. Reja asosida qayta hikoyalash.

9. Xulosalash va umumlashtirish.

Ilmiy-ommabop maqolalarni uzviy birlikda o‘rganish o‘quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy-adabiy hodisalarni, ular o‘rtasidagi umumiylilikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta’minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o‘qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o‘stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlar tarjimasining o‘ziga xosliklari // TARJIMASHUNOSLAR FORUMI – 2023. Dec., 2023 www.oriens.uz
2. Гришечкина Г.Ю. Некоторые особенности синтаксиса в научнопопулярном тексте. 2009. – № 3. – С. 103–109.
3. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 695 b.
4. Matchon, S. Adabiy ta’lim va mutolaa madaniyati. – Toshkent: BAYOZ, 2023. – 152 b.